

Mundarija

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma.
- II. Tanlovning texnik qismi.
- III. Tanlovning narx qismi.
- IV. Shartnoma loyixasi.



I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma

| | | | |
|----------|------------------------------------|-----|---|
| 1 | Umumiy qoidalar | 1.1 | Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprel kungi O'RQ-684-sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonuni (keyingi o'rinlarda «Qonun»)ga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi №PQ-3550-sonli «Loyixasoldi, loyixa, tanlov xujjatlari va shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (keyingi o'rinlarda «Qaror»)ga, shuningdek, Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3016) (keyingi o'rinlarda «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan. |
| | | 1.2 | Tanlov mavzusi: Damas avtomobilining 96612057-BUSH-STABILIZER BAR END va 96612058-BUSH, STABILIZER BAR butlovchi qismlarini ishlab chiqarib yetkazib berish. |
| | | 1.3 | Tanlovning quyi va yuqori qiymatlari va valyutalari tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan. |
| | | 1.4 | Sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar va ishlar) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan. |
| | | 1.5 | Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolarining bevosita ishtirokida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi ham mumkin |
| 2 | Tanlov tashkil qiluvchilar. | 2.1 | Tanlov buyurtmachisi «UzAuto Motors» AJ (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi») hisoblanadi. Buyurtmachining yuridik manzili: Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko'chasi 1. Buyurtmachining rekvizitlari: MFO 01169, STIR 200244767, x/r 2021 4000 9005 3230 5053 AT «Asaka bank» Hazorasp filiali |
| | | 2.2 | Buyurtmachining aloqa bog'lovchi vakili: Global xarid qilish boshqarmasining HVAC, shassi va uzellar bo'linmasi muxandis-texnologi. email: Bekzod.Raximov@uzautomotors.com tel: +998781502200 #2 4845 |
| | | 2.3 | Tanlov komissiyasining ishchi organi «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali Mahalliyashtirish bo'limi (keyingi o'rinlarda «Ishchi organ») hisoblanadi. |
| | | 2.4 | Shartnoma egasi: «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali |
| | | 2.5 | Tanlov xujjatlari qonunga muvofiq tashkil qilingan besh kishidan iborat kompaniya komissiyasi tomonidan baxolanadi. |

| | | | |
|---|---------------------------------|-----|--|
| 3 | Tanlov ishtirokchilari | 3.1 | Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari ishtirok etishlari mumkin, Ushbu tanlov xujjatlarining 4.2 bandida ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno. |
| 4 | Tanlov o'tkazish tartibi | 4.1 | Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar: a) takliflarni qonunchilik talablari va muddatlariga, hamda tanlov xujjatlariga muvofiq ravishda yuborishlari kerak. |
| | | 4.2 | Tanlovda ishtirok etishga quyidagi ishtirokchilarga ruxsat berilmaydi: |
| | | | - qayta tashkil bo'lish, tugatish yoki inqirozlik bosqichida turgan; |
| | | | - buyurtmachi bilan sudlashuv yoki arbitraj muxokamasida bo'lgan; |
| | | | - Layoqatsiz (insofsiz) ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan; |
| | | | - soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi bo'lgan; |
| | | | - Imtiyozli soliq tizimi bilan ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalar o'tkazishda oshkoralikka va ma'lumot berishga yo'l qo'ymaydigan davlatlardagi yoki xududlar (offshor xududlar) dagi banklarda xisob raqamlari bo'lgan yoki ro'yxatdan o'tgan; |
| | | 4.3 | Buyurtmachi quyidagi holatlarda tanlov ishtirokchisini xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatish xuquqiga ega: |
| | | | - tanlov ishtirokchisi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho buyumni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa; |
| | | | - tanlov ishtirokchisi O'zR qonunchiligini buzgan holda boshqa raqobatchilardan adolatsiz ustunlikka ega bo'lsa yoki qonunchilikka zid ravishda manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda |

| | | | |
|---|---|-----|---|
| 5 | Tanlov tili, o'lchov birligi | 5.1 | Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasida amalga oshirilayotgan tanlov taklifi va unga bog'liq yozishmalar (xujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Agar tanlov taklifi boshqa tilda taqdim qilinsa, u holda uning o'zbek tilidagi aniq tarjimasini ilova qilinishi kerak. Birdan ortiq tildan foydalanilganda, tanlov matnida tafovut bo'lsa o'zbek tilidagi matn ustun qo'yiladi. Texnik xujjatlarni ingliz tilida taqdim qilishga ruxsat etiladi. |
| | | | Tanlov takliflarida umumiy qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanilishi kerak. |
| 6 | Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi | 6.1 | Portalda e'lon qilingan tanlovda ishtirok etuvchilar e'londa ko'rsatilgan tanlov o'tkaziladigan xarid platformasiga takliflarini, raqamlangan, muxrlangan va ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlangan xolda xarid platformasiga joylashtirishi talab etiladi. |
| | | 6.2 | Tanlov ishtirokchisi: |
| | | | - taqdim qilinayotgan ma'lumot va xujjatlarning xaqiqiyliigi va ishonchligiga javobgar; |
| | | | - faqat bitta taklif berish xuquqiga ega; |
| | | | - takliflar taqdim qilish muddati tugagunga qadar taqdim qilgan taklifini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish xuquqiga ega. |
| | | 6.3 | Tanlov taklifi ikki qismdan iborat: - texnik qism buyurtmachining texnik talablariga mos kelishi lozim va taklif qilinayotgan tovar xaqida batafsil ma'lumotni o'zida mujassam qilgan bo'lishi kerak; - narx qismi tanlov shartlariga mos kelishi kerak va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni (shu jumladan, maxsulot nomi, bir dona uchun narx, barcha soliqlar qo'shilgandagi umumiy narx, to'lov shartlari, taklifning amal qilish muddati va x.k.) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak |
| | | 6.4 | Tanlov ishtirokchisining narx taklifi va narxlar jadvali alohida tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak, shuningdek, elektron tashuvchilarda original formatda (Microsoft Office) taqdim etishga ruxsat etiladi. Narx shakllantirishdagi formulalarni kuzatish imkoni bo'lishi kerak. |
| | | 6.5 | Tanlov takliflarini xarid platformasida ko'rsatilgan lot ostiga taqdim etilishi kerak. |

| | | | |
|---|--|------|--|
| | | 6.6 | <p>Tanlov taklifida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'lumotlar portalidagi lot raqami; - tanlov mavzusi; - ishtirokchining nomi; - buyurtmachining nomi va manzili; - ishtirokchining kontakt ma'lumotlari (elektron pochta manzili, vakolatli vakilning telefon raqami); |
| | | 6.7 | - korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda ariza berish talabi. |
| | | 6.8 | Ishchi organ mazkur yo'riqnoma talablariga mos ravishda ro'yxatga olingan tanlov takliflarining yaxlitligi va saqlanganligiga javobgarlikni zimmasiga oladi. |
| | | 6.9 | Tanlov takliflari http://xarid.uzex.uz portalida e'lon berilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida (soat 17:00) gacha xarid platformasiga joylashtirishi shart. |
| | | 6.10 | Tanlov takliflari taqdim qilingan takliflarni muxokama qilish komissiya a'zolari bilan birgalikda o'tkaziladi. |
| | | 6.11 | Tanlov taklifi amal qilish muddati tanlov taklifi taqdim qilishning so'nggi kunidan boshlab kamida 30 (o'ttiz) kunni tashkil qilishi kerak. |
| 7 | Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uyaaytirish | 7.1 | Buyurtmachi zarur xollarda taklif taqdim qilish muddatini uzaytirishi mumkin, shuningdek, tanlov ishtirokchilariga ularning takliflari amal qilish muddatlarini tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin. |
| | | 7.2 | Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish haqidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi va zarur xollarda buyurtmachi saytida yoki boshqa OAV da e'lon qilinadi. |
| 8 | Tanlov xujjatlariga o'zgartirishlar kiritish | 8.1 | <p>Zarur xollarda buyurtmachi tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli.</p> <p>Tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror taklif taqdim qilish muddatidan kamida 3 (uch) kun oldin qabul qilinishi mumkin.</p> <p>Tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish jarayonida maxsulot (ish, xizmat ko'rsatish) yoki uning xarakteristikasi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Taklif taqdim qilish muddati tugaguncha tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritilgan xollarda, tanlov muddati o'zgartirish kiritilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kundan kam bo'lmagan muddatga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.</p> |

| | | | |
|---|--|------|---|
| 9 | Tanlov takliflari ko'rish jarayoni, ularni baxolash tartibi va mezonlari | 9.1 | E'londa tanlov o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim qilingan tanlov takliflarini baxolash uchun tanlov takliflarni ochadi. |
| | | 9.2 | Tanlov ishtirokchilari takliflarini ko'rib chiqish va baxolash tanlov komissiyasi tomonidan tanlov takliflari taqdim qilish muddati tugagan paytdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida o'tkaziladi. |
| | | 9.3 | Takliflarni ochishda barcha xujjatlarning mavjudligi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilgani tekshiriladi. Mos xujjatlar bo'lmagan holda tanlov komissiyasi mazkur taklifni ko'rib chiqishga va baxolashga qo'yimaslik xuquqiga ega. |
| |  <p>Malaka hujjatlari.docx</p> | 9.4 | Tanlov komissiyasi tanlov xujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida g'olibni aniqlash uchun rad qilinmagan takliflarni baxolashni amalga oshiradi. |
| | | 9.5 | Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilinishi zarur bo'lgan saralangan xujjatlar shakllari va ro'yxati tanlov xujjatlarining 1- ilovasida keltirilgan. |
| | | 9.6 | Tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan xujjatlardagi ma'lumotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlatishga xaqli. |
| |  <p>Baholash mezonlari.docx</p> | 9.7 | Tanlov takliflarini baxolash va g'olibni aniqlash tanlov xujjatlari(2-ilovasi)da bayon qilingan mezonlar asosida amalga oshiriladi. |
| | | 9.8 | Agar taklif Qonun, qaror, nizom talablariga va tanlov xujjatlariga mos kelsa, tegishli rasmiylashtirilgan deb tan olinadi. |
| | | 9.9 | Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan tanlov xujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi |
| | | 9.10 | Tanlov takliflarini baxolash jarayonida ishchi organ tanlov ishtirokchilaridan ularning takliflari yuzasidan izox talab qilishi mumkin. Ushbu jarayon rasmiy ravishda, tanlov tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda yozma shaklda amalga oshiriladi. Izox jarayonida taklif moxiyati, shuningdek, narx bo'yicha o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi. |

| | | | |
|-----------|--|------|--|
| | | 9.11 | Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov taklifining narxga oid qismi bor tanlov takliflari ochilish sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha xisoblanadi. |
| | | 9.12 | Tanlov xujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnoma ijrosining eng yaxshi shart-sharoitlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb tan olinadi. |
| | | 9.13 | Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lganda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisini boxabar etgan xolda tanlov taklifini rad etish yoki ularni ko'rib chiqish uchun boshqa shartlar belgilashga xaqli. |
| | | 9.14 | Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan amaldagi barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun javobgardir. |
| | | 9.15 | Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. |
| | | 9.16 | Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi ishchi organning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va uning ko'chirmasi imzolangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi. |
| | | 9.17 | Xarid tadbiri natijasi bo'yicha har bir alohida tovar (ish, xizmat ko'rsatish uchun) alohida g'olib aniqlanishi mumkin |
| | | 9.18 | Xar qanday tanlov ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga tanlov natijalari bo'yicha izox taqdim qilishi xaqida so'rov yuborishga xaqli. |
| 10 | Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioya qilish | 10.1 | O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar: <ul style="list-style-type: none"> - ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini xisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar; - komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtasida til biriktirishlar va boshqa noqonuniy xatti-xarakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari |

| | | | |
|-----------|---------------------------|------|--|
| | | 10.2 | Shartnoma bo'yicha majburiyatlari (miqdor, sifat va boshqa texnik parametrlar bo'yicha) ni bajarmagan tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki imzolangan shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortiladi. |
| 11 | Boshqa shartlar | 11.1 | Agar tanlovda ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod maxsulotlari taklif qilinsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu maxsulotlar bo'yicha uchinchi tomon bildirgan fikr-muloxazani taqdim qilishni so'rashga xaqli. |
| | | 11.2 | Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar o'tkazilayotgan tanlov xaqida izox olish uchun ishchi organga murojaat qilish xuquqiga ega |
| | | 11.3 | Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga tanlov e'lonida ko'rsatilgan shaklda tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirib berilishi to'g'risida so'rov yuborishga xaqli. Mazkur so'rov taklif taqdim qilish muddati tugashiga 3 (uch) kun qolganidan avval qabul qilingan bo'lsa taqdim qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida buyurtmachi belgilangan shaklda tanlov xujjatlari qoidalariga tushuntirishlar yuborishi shart. Tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirish uning moxiyatini o'zgartirmasligi kerak. |
| | | 11.4 | Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin: - tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki xech kim qatnashmasa; - takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi xamma takliflarni tanlov xujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan xolda rad etgan bo'lsa. |
| | | 11.5 | Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga xaqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi. |
| 12 | Shartnoma imzolash | 12.1 | Tanlov natijalariga ko'ra tanlov xujjatlari va ishtirokchi taqdim qilgan tanlov taklifi shartlari asosida ushbu ishtirokchi bilan shartnoma imzolanadi. |
| | | 12.2 | Tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra g'olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi g'olib aniqlangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida tanlov komissiyasi xulosasi xaqida yozma ravishda ogoxlantiriladi. G'olib aniqlangan paytdan boshlab 10 (o'n) kun ichida buyurtmachi va g'olib shartnoma imzolashlari kerak. |

| | | | |
|--|--|------|--|
| | | 12.3 | Tanlov g'olibi tanlov shartlari bo'yicha shartnoma imzolashni rad etgan xolda shartnoma imzolash xuquqi zaxiradagi ishtirokchiga o'tadi. Bunday xolatda zaxiradagi ishtirokchi tanlov g'olibi taklif qilgan narx bo'yicha shartnoma imzolashi yoki shartnoma imzolashni rad etishi mumkin. |
|--|--|------|--|

TEXNIK QISM

Damas avtomobilining 96612057-BUSH-STABILIZER BAR END va 96612058-BUSH, STABILIZER BAR butlovchi qismlarini ishlab chiqarish.

Ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni, xajmi va xususiyati (talablari).

Butlovchi qismlarni ishlab chiqarish (ishlarni bajarish) Ishtirokchi tomonidan Tanlov xujjatlarining texnik qismi, 1-ilovasida ko'rsatilgan "Texnik topshiriq" (keyingi o'rinda – TT deb yuritiladi) talablariga muvofiq amalga oshirilishi talab qilinadi.

Butlovchi qismlarni oylik ishlab chiqarilish xajmlari "UzAuto Motors" buyurtmasiga muvofiq o'zgarishi mumkin.

Butlovchi qismlarni yetkazib berish muddati (yoki jadvali), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar.

Yetkazib berish tartibi, 1-ilovada keltirilgan, qismlarni yetkazib berish EDI (Elektron ma'lumotlar almashuvi) tizimi va ASN (oldindan yetkazib berish xabarnomasi) tizimi buyicha, xisob-varaqa (schet-faktura) asosida amalga oshiriladi.

Ilova: Texnik topshiriq (TT)



TT.docx

Texnik topshiriq (TT)

| | |
|------------------------|--|
| Butlovchi qism nomi | 96612058-BUSH,STABILIZER BAR 96612057-BUSH-STABILIZER BAR END |
| Texnik ko'rsatkichlari | Material 96612058-BUSH,STABILIZER BAR AA614(EDS-M-7001) 96612057-BUSH-STABILIZER BAR END AA718(EDS-M-7001) <i>Umumiy texnik ko'rsatkichlar, butlovchi qismga qo'yiladigan talablar va o'lchamlar butlovchi qism chizmasida to'liq ko'rsatilgan.(chizmalar ilova qilinadi).</i> |

| | |
|--|--|
| <p>Butlovchi qismga texnika- texnologik talablar</p> | <p style="text-align: center;">Mahsulotni qabul qilish</p> <p>Mahsulotni sifati bo'yicha qabul qilish buyurtmachining "Butlovchi qismlarni kiritish nazorati" standartiga asosan amalga oshiriladi.</p> <p>Mahsulotni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilish buyurtmachining korxonasida ta'minotchining vakili ishtirokida amalga oshiriladi.</p> <p>Yetkazib berilgan mahsulot miqdori buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan talabnomaga binoan, yozma yoki elektron shaklda kelishilgan shaklda berilgan hajmlarga mos kelishi lozim.</p> <p style="text-align: center;">Mahsulot sifati</p> <p>Ta'minotchi buyurtmachiga mahsulotni buyurtmachi tomonidan joriy etilgan me'yor va o'rnatilgan standart, mahsulotni sifatini, chizmalar talablari, me'yoriy hujjatlar, nazorat qilish usullari asosida yetkazib berilishiga kafolat beradi.</p> <p>Mahsulot materialini, tuzilishini yoki hujjatlarni bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Buyurtmachi mahsulot sifatini va ta'minotchining ekologik sertifikatini mavjudligini tekshirish huquqiga ega va zarur hollarda bu tekshirish huquqi bevosita iste'molchiga ham berilishi mumkin.</p> <p style="text-align: center;">Sifat kafolati.</p> <p>Agar mahsulot kam yetkazib berilishi va sifat nomuvofiqligi, qadoqsiz va o'ramasiz yoki talab darajasida bo'lmagan qadoqda va o'ramada kelganligi, markasiz yoki talab darajada markalanmaganligi ta'minotchi vakili ishtirokida aniqlansa, ta'minotchi 3 (uch) ish kunida ushbu kamchiliklarni bartaraf etishi va yetishmayotgan miqdorini o'z mablag'lari xisobidan to'ldirilishi lozim, shuningdek buyurtmachidan yozma xabar (pochta, faks, elektron pochta) qabul qilinganidan keyin yoki yetkazib berilgan sanadan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida tegishli idishga qadoqlash, markalash ishlarini bajarishi kerak.</p> |
| <p>Butlovchi qismning ishlatilish joyi</p> | <p style="text-align: center;">Yig'uv sexida ishlatiladi</p> |
| <p>Narx qismi</p> | <p>Tender taklifida ko'rsatilgan narxlar eng past narxdan oshmasligi kerak va keyinchalik o'zgartirilishi mumkin emas.</p> <p>Taqdim qilingan narxlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so'mda va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS siz) ni inobatga olmagan holda ko'rsatilishi lozim.</p> |
| <p>Fotosurat</p> | <div style="display: flex; justify-content: space-around; align-items: center;"> <div style="text-align: center;">  <p>96612057</p> </div> <div style="text-align: center;">  <p>96612058</p> </div> </div> |
| <p>Chizmasi va umumiy talablar</p> | <p style="text-align: center;">Ilova qilinadi</p> |

| | |
|---------------------|---|
| Qo`shimcha talablar | <p><i>Tara va qadoqlash</i></p> <p>Butlovchi qismni yetkazib berishda shakli va hajmi ta`minotchi tomonidan ishlab chiqilgan va buyurtmachi bilan kelishilgan maxsus idishlar ishlatiladi va buyurtmachi bilan kelishilgan talablarga ko`ra markalanishi lozim.</p> <p>Mahsulotni yetkazib berishda quyidagi ma`lumotlarni o`z ichiga olgan yorliq yopishtiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> – avtomobil turi; – butlovchi qism nomi, raqami va soni; – ta`minotchining kodi; – yetkazib berish joyi; – idish hajmi, qadoqlash sanasi, nazorat xolati va boshqalar. |
|---------------------|---|

III. Maxsulot narxi bo'yicha

| | | |
|---|--|--|
| 1 | Chegaraviy narx (Predelnaya stoimost) | 305 317 600,00 (Uch yuz besh million uch yuz o`n yeti ming olti yuz) 00 sum. QQS siz |
| 2 | Moliyalashtirish manbai | O`z mablag`lari asosida |
| 3 | To`lov shartlari va to`lov tartibi | Shartnomaga ko`ra-taqqoslov dalolatnomasi hisoboti mavjud bo`lsa 10 bank kuni ichida, 15-sanadan keyin va har oyning oxirida, bir oyda ikki marta milliy valyuta so`mda. |
| 4 | To`lov valyutasi | UZS – O`zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (Sum) |
| 5 | Yetkazib berish vaqti | Shartnoma imzolanganidan keyin shartnoma muddati tugagunga qadar. |
| 6 | Maxsulot yetkazib berish joyi (ishni bajarish) | Xorazm viloyati Tuproqqal`a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko`chasi 1. |
| 7 | Tanlov uchun takliflar taqdim etilishining amal qilish muddati | 10 kun |

Ilova№1: Tanlov hujjatlari uchun

Malakaviy hujjatlar RO`YHATI

1. Komissiya raisi nomiga Tanlovda qatnashish uchun ariza (shakl No1)
2. Tanlov ishtirokchisining muxri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hujjatning nusxasi.

3. Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligini, mijoz bilan sud yoki hakamlik holatida emasligini, shuningdek, ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha noto'g'ri bajarilgan majburiyatlarning yo'qligini tasdiqlovchi kafolat xati (2 -shakl).

4. Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (3 -shakl)

shakl №1

ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA

№: _____

Sana: _____

Xarid komissiyasi

ARIZA

Tanlov hujjatlari (taklif qilinayotgan mahsulotlarning nomini ko'rsating) bilan tanishib chiqqandan so'ng, №___ so'rovlarga javoblar (yozma so'rovlar va ularga javoblar berilgan taqdirda so'rovlar raqamlarini ko'rsating), biz buni tasdiqlaymiz. (Tanlov ishtirokchisining ismi), tanlov hujjatlariga muvofiq mahsulot yetkazib berish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish maqsadida.

Shu munosabat bilan biz quyidagi hujjatlarni yuboramiz:

1. ___ varaqda malaka hujjatlari (varaqlar bukletlar, kompakt disklar va boshqalarni taqdim qilgan taqdirda, sonini ko'rsating);
2. Tanlov taklifining texnik qismi;
3. Tanlov taklifining narx qismi.
4. Boshqa hujjatlar (agar boshqa hujjatlar taqdim etilsa, varaqlarning nomi va sonini ko'rsatish kerak).

Tanlov taklifini tayyorlash uchun mas'ul shaxsning F.I.O:

Aloqa telefoni / faks: _____

Elektron pochta manzili _____

F.I.O rahbar yoki vakolatli shaxsning imzosi

Muhr o'rni

ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA

№: _____

Sana: _____

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan kafolat beramiz korxonamizning _____:
(korxonasi nomi)

- Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnoma shartlarini bajarilishi bo'yicha muammolar yo'qligi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emas;
- sudlanish yoki hakamlilik holatida emas;
- shuningdek, kompaniyaning banki ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilmagan;
- vijdotsiz ijrochilarning yagona reestrda ro'yxatga olinmagan.

Imzo:

- Korxonasi rahbari F.I.O. _____
- Bosh buxgalter F.I.O. _____
- Yurist F.I.O. _____

Muhr o'рни

Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot

| | | |
|---|--|--|
| 1 | Huquqiy shaklini ko'rsatuvchi yuridik shaxsning to'liq nomi | |
| 2 | Ro'yxatga o'linganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga oluvchi organning nomi) | |
| 3 | Yuridik manzili | |
| 4 | Aloqa telefoni, faks, e-mail | |
| 5 | To'liq bank tafsilotlari(rekvizit) | |
| 6 | Korxonaning asosiy faoliyati | |

_____ (vakolatli shaxs imzosi)

_____ (vakolatli shaxsning lavozimi va F.I.O.)

M.O'.

Sana: « ___ » _____

Ilova №2 Tanlov hujjatlari uchun

Ishtirokchilarni malakaviy tanlash va takliflarni baholash tartibi va mezonlari.

Malakali tanlov (baholash) tanlovning texnik va tanlov qismlarini ko'rib chiqish boshlanishidan oldin xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Agar ishtirokchi tomonidan kerakli ma'lumotlar taqdim etilmasa, xarid komissiyasi uning tanlovda ishtirok etishiga ruxsat bermaydi.

Baholash mezonlari

| № | Mezonlar | Baholash | Izoh |
|---|---|--|--|
| 1 | Korxonaning Guvoxnomasi va Nizomi | Bor/Yo'q | Agar yo'q bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi. |
| 2 | Oldindan tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish | Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi) | Agar yo'q bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi. |
| 3 | Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichidagi ishtirokchining holati | Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi) | Agar yo'q bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi. |
| 4 | Buyurtmachi bilan sud muhokamasi yoki hakamlik muhokamasi bosqichidagi ishtirokchining holati | Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi) | Agar yo'q bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi. |
| 5 | Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzlarning yo'qligi | Bor/Yo'q | Agar yo'q bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi. |

Izoh:

Qonunning 37-bo'limi

Davlat buyurtmachisi zarur hollarda mahsulot (ish, xizmat)ning o'ziga xos xususiyatlari yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, ishtirokchilarga qo'shimcha talablar belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar davlat xaridlarining asosiy tamoyillariga zid bo'lmasligi kerak.

Ishtirokchilar uchun qo'shimcha talablar ma'lumotlarda ko'rsatilishi kerak e'lon qilingan paytdagi davlat xaridlari to'g'risida.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar bilan davlat xaridlarida ishtirok etish uchun ishtirokchilar dastlabki saralashdan o'tadilar.

1. Takliflarni texnik baholash.

Tanlov jadvalida ko'rsatilgan texnik baholash mezonlari asosida o'tkaziladi. Agar taklifni texnik baholash natijalariga ko'ra, Tanlov ishtirokchisi mezonlar bo'yicha "0" ball to'plagan bo'lsa, bu ishtirokchi xarid komissiyasi tomonidan tanlovda qatnashishdan diskvalifikatsiya qilinadi va uning taklifi boshqa ko'rib chiqilmaydi.

$$\text{Ballar} = (\text{Olingan ballar} / \text{Maksimal ballar}) * \text{Kategoriya ko'rsatgichi}\%$$

Texnik baholash mezonlari

| № | Mezonlar | Majburiy | Baholash |
|---|--|-----------------------|---------------------------------------|
| 1 | Termoplast avtomat | Ta'minotchi xisobidan | Mos - 5 ball Mos kelmaydi - 0 ball |
| 2 | Texnik topshiriqda ko'rsatilgan talablarga muvofiq ma'lumotlarni taqdim etish. | Ta'minotchi xisobidan | Mos - 5 ball Mos kelmaydi - 0 ball |
| 3 | Ishlab chiqarish grafigi | Max. 90 kun | Mos - 5 ball Mos kelmaydi - 0 ball |
| 4 | Transport xarajatlari | Ta'minotchi xisobidan | Mos - 5 ball Mos kelmaydi - 0 ball |

КОМПЛЕКС ТЕКШИРУВ АНКЕТАСИ

“UzAuto Motors” акциядорлик жамияти (кейинги ўринларда – “Компания”) коррупцияга қарши кураш, жиноий даромадларни легаллаштиришга қарши кураш ва иқтисодий санкциялар тўғрисидаги қонунларга жуда жиддий ёндашади ва бирон-бир шартномани тузишдан олдин потенциал бизнес ҳамкорларидан Компаниянинг Бизнес ҳамкорларининг одоб-ахлоқ Кодексига мувофиқлигини таъминлаш мақсадида муайян маълумотларни тақдим этишни талаб қилади.

Марҳамат қилиб, ушбу анкетани иложи борича тўлиқ ва аниқ тўлдилинг. Агар савол сизга тааллуқли бўлмаса ёки сиз жавобни билмасангиз ёки жавоб бера олмасангиз, илтимос, буни жавобингизда албатта қисқа изоҳланг. Тўлиқ бўлмаган ёки ноаниқ жавоблар кейинги процедураларни талаб қилиши мумкин бўлиб, бу шартномани тузиш жараёнини кечиктиради. Зарурат бўлганда Компания қўшимча маълумотни сўраши мумкин. Агар сиз билан тузилган шартнома муддати давомида жавобларингиздан бири ўзгарса, бу ҳақда дарҳол Компанияни хабардор қилишингиз лозим.

Ушбу анкета Сиз/Сизнинг ташкилотингиз Компания билан бизнес муносабатларини ўрнатиш учун кўриб чиқиладиганлиги сабабли тақдим этилади. Ушбу сўровномани Компанияга тақдим этиш фақат кўриб чиқиш жараёнидаги бир илк қадамдир ва ушбу мазкур тақдимот Компания ва Сиз/Сизнинг ташкилотингиз ўртасида бизнес муносабатлари мавжудлигини тасдиқламайди.

Сизнинг томонингиздан ушбу анкетада тақдим этилган маълумотлардан Компания томонидан Ўзбекистон Республикаси, АҚШ ва бошқа юрисдикцияларнинг коррупцияга қарши кураш тўғрисидаги қонунларига риоя қилиш учун фойдаланилади. Саволлар фақат Компания томонидан юқоридаги қонунларга риоя қилинишига тегишли маълумотларни олиш учун тузилган. Компания Сиз/Сизнинг ташкилотингиз тўғрисида қўшимча маълумотларни сизнинг жавобларингизда кўрсатилган тавсия берувчилар ва бошқа томонлардан олади ва ушбу маълумотлардан юқорида баён этилган мақсадларда фойдаланади. Ушбу сўровнома орқали тавсия берувчиларингиз ва бошқа томонлар тарафидан олинган маълумотлар бирон-бир бошқа мақсадларда фойдаланилмайди, узатилмайди ёки қайта ишланмайди.

Ушбу сўровнома орқали олинган маълумотлар Компаниянинг ходимларига ёки жалб этилган юридик фирмаларига маълумотни қайта ишлаш учун юборилиши мумкин. Компания ушбу маълумотларни Компания сиёсати ва процедураларига мувофиқ юқорида баён этилган мақсадлар билан боғлиқ бўлган вақтгача сақлаб қолади.

Сиз ўзингизга тегишли маълумотларга олиш ҳуқуқига ёки, агар у нотўғри бўлса, Компаниядаги сизга тегишли маълумотларни ўзгартириш ёки йўқ қилиш ҳуқуқига эга бўлишингиз мумкин. Анкетани тўлдириш ихтиёрий, аммо анкетани тўлдирмаслик Компаниянинг Сиз билан иш олиб бориш қарорига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Агар сизда юқоридагилар бўйича бирон-бир саволингиз ёки хавотирларингиз бўлса, илтимос, Компаниянинг Боғланиш учун шахс билан боғланинг.

Марҳамат, қуйидагиларни тўлдилинг:

| UzAuto | | УМУМИЙ МАЪЛУМОТЛАР |
|---------------|--|---------------------------|
| 1 | Ташкилотингизнинг номи | |
| 2 | Ташкилотингизнинг солиқ тўловчининг индивидуал рақами (СТИР) | |
| 3 | Ташкилотингизнинг олдинги номлари (агар бўлса) | |

| | | | | |
|--|--|--|--|-------------------------|
| 4 | Юридик манзил | | | |
| 5 | Давлат рўйхатига олинган / рўйхатдан ўтган сана | | | |
| 6 | Банк реквизитлари (ҳисоб рақами, банк манзил, банк коди ва бошқа керакли маълумотлар) | | | |
| 7 | Бизнеснинг асосий йўналишлари (низом/ патентга кўра ва ҳақиқатда) | | | |
| 8 | Сиз бизнеснинг ушбу соҳаларида неча йилдан бери иш юритяпсиз? | | | |
| 9 | Ходимлар сони, агар мавжуд бўлса | | | |
| 10 | Ташкилотингиз банкротлик / тугатиш жараёнидами? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> | | |
| ТАШКИЛОТИНГИЗ, МУАССИСЛАР, ИШЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ | | | | |
| 11 | Сизнинг ёки йирик акциядорингизнинг акциялари Буюк Британияда ёки АҚШда қимматли қоғозлар бозорида котировка қилинадими? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотлар (шу жумладан, агар мавжуд бўлса, кўп қисмининг эгаси ва тегишли биржаларнинг номлари)ни маълум қилинг: | | |
| <u>Шарҳ:</u> | | | | |
| 12 | Илтимос, ташкилотингизнинг асосий ходимларини, шу жумладан (а) бош директор/ президент/ бошқарувчи ҳамкор ва, агар мавжуд бўлса: (b) молиявий директор; (c) бош бухгалтер; (d) комплаенс бўлими раҳбари; ва (д) кузатув кенгаши аъзолари ёки уларга тенглаштирилган шахсларни кўрсатинг. | | | |
| | Лавозими | Ф.И.Ш. | ИНН | Тайинланган йили |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| 13 | Илтимос, компаниянинг муассислари, шу жумладан, якуний бенефициарлар ҳақида маълумот беринг. | | | |
| Якуний бенефициар – бу тўғридан-тўғри ёки бошқа компаниялар иштирок этиш орқали компаниянинг ҳақиқий эгаси бўлган жисмоний шахс. | | | | |
| Яқин қариндошлар - ота-она, турмуш ўртоғи, ака-ука, опа-сингил, фарзандлар, ҳамда турмуш ўртоғининг ота-онаси, ака-укаси, опа-синглиси. | | | | |
| | Ташкилотингиз муассисларининг номи | СТИР | Ҳиссалардаги улуш (илтимос, улуши 10 Ҳиссалардан ошган йирик муассисларни кўрсатинг) | |
| | | | | |
| | | | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| 14 | Директорларингиз, мансабдор шахсларингиз, аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиздан (ёки бундай шахсларнинг истаган яқин қариндошлари) бири Компания ходимлари ҳисобланадими? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> Агар “ха” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг |
| <u>Шарҳ:</u> | | |
| 15 | Сиз ўзингиз акциялар, капитал, фойда ёки овоз бериш ҳуқуқининг 20 фоизидан кўпроғига эга бўлган компанияларингиз номларини ва СТИРни кўрсатинг | |
| | Ташкилот номи | СТИР |
| | | Фоизлардаги улуш (илтимос, улуши 20 фоиздан ошган кўрсатинг) |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| ТИЖОРАТ МАЪЛУМОТЛАРИ | | |
| 16 | Сизни тавсия этиши мумкин бўлган камида 3 (уч) нафар шахснинг боғланиш учун маълумотларини тақдим этинг | |
| 1-тавсия берувчи | Ф.И.Ш. | |
| Ташкилот | | Лавозими |
| Телефон | | E-mail |
| 2-тавсия берувчи | Ф.И.Ш. | |
| Ташкилот | | Лавозими |
| Телефон | | E-mail |
| 3-тавсия берувчи | Ф.И.Ш. | |
| Ташкилот | | Лавозими |
| Телефон | | E-mail |
| ҚОНУНЧИЛИККА РИОЯ ЭТИЛИШИ | | |
| Амалдаги қонунчилик - порахўрлик ёки коррупцияга қарши кураш, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, фирибгарликка қарши курашни тартибга солувчи ва Томонларга тааллуқли бўлган ҳар қандай қонунлар, қоидалар ёки Ўзбекистон Республикасининг ёки бошқа бирон-бир давлатнинг қонун ҳужжатлари, шу жумладан, АҚШ | | |

| | | |
|---|---|--|
| “Чет эл коррупцияси тўғрисида” ги қонуни (FCPA) ва Буюк Британиянинг “Порахўрлик тўғрисида” ги қонуни (UKBA) билан чекланмаган ҳолда. | | |
| 17 | Сўнги 3 йил давомида сиз ёки сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса): (1) Амалдаги қонунчилик ёки сизнинг бизнесингиз билан боғлиқ бошқа ҳар қандай даъволар, тергов ҳаракатлари ёки мажбурий ижро ҳаракатларининг предмети бўлганми; ёки (2) маълум бир фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқидан маҳрум этилганми? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | Агар “ҳа” бўлса, илтимос, ҳаракатлар ва натижаларнинг тафсилотларини кўрсатиб, тегишли ҳужжатларни илова қилиб изоҳланг: | |
| 18 | Сиз, сизнинг қўлингиз остидаги мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, ходимларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорлар ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса) томонидан Амалдаги қонунчиликнинг ҳақиқатда ёки эҳтимолда бузилиши, ёки бизнес амалиётингиз билан боғлиқ бошқа ҳаракатлар ҳақида хабарингиз борми? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | Агар “ҳа” бўлса, илтимос, ҳаракатлар ва натижаларнинг тафсилотларини кўрсатиб, тегишли ҳужжатларни илова қилиб изоҳланг: | |
| 19 | Сиз рўйхатдан ўтган жойингиз юрисдикциясида ва сиз бизнес юритадиган бошқа барча мамлакатлардаги Амалдаги қонунчилиқа риюя қиласизми? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | Агар “йўқ” бўлса, илтимос, тушунтириб беринг | |
| <u>Шарҳ:</u> | | |
| 20 | Мажбурий меҳнат (шу жумладан болалар меҳнати) товарларни ёки маҳсулотларни ишлаб чиқаришда (ишларни ёки хизматларни кўрсатишда) фойдаланилмаганлигига ва/ёки фойданилмаётганлигига кафолат берасизми? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | Агар “йўқ” бўлса, илтимос, тушунтириб беринг | |
| <u>Шарҳ:</u> | | |
| 21 | Сизнинг ташкилотингизда: | |
| Бизнес ҳулқ-атвори кодекси, ахлоқ қоидалари ёки шунга ўхшаш ҳужжат амал қиладими? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> | |
| | Агар “ҳа” бўлса, илтимос илова қилинг. | |
| Порахўрлик ва коррупцияга қарши кураш дастури (сиёсати)? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> | |
| | Агар “ҳа” бўлса, илтимос илова қилинг. | |

САНКЦИЯЛАР РЕЖИМИГА РИОЯ ЭТИЛИШИ

Ушбу бўлимнинг мақсадлари учун:

Санкциялар – Америка Қўшма Штатлари, Европа Иттифоқи ёки Европа Иттифоқининг аъзо давлати, Буюк Британия ёки Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан ҳар қандай иқтисодий, молиявий ёки савдо санкциялари ёки эмбаргоси, экспорт назорати ёки бошқа чеклов чораларини қўллаш билан боғлиқ ҳар қандай қонун, қарор, фармон, суд қарори ёки бошқа қонуний мажбуриятларни англатади.

Санкцияланган шахс – ҳар қандай Санкциялар билан муносабатлари чекланган ёки тақиқланган ҳар қандай жисмоний ёки юридик шахс (“Шахс”), шу жумладан (а) ушбу Шахсларнинг ҳар қандай рўйхатида Санкциялар объекти сифатида кўрсатилган ҳар қандай Шахс; (б) жойлашган, уюшган ёки резидент Шахс; ёки эгалик қиладиган ёки бошқариладиган Шахс; ёки ваколатли мамлакат ҳукумати (Қрим, Куба, Эрон, Сурия, Судан ва Шимолий Корея) номидан ҳаракат қиладиган Шахс; ёки (с) ҳар қандай Санкцияларга мувофиқ бошқа тарзда чекланган ёки тақиқланган ҳар қандай муносабатлар, шу жумладан ҳар қандай эгалик, назорат ёки воситачилик муносабатлари ёки (а) ва (б) да кўрсатилган ҳар қандай Шахс билан ҳар қандай тўғридан-тўғри ёки билвосита тижорат алоқалари.

| | | |
|----|--|--|
| 22 | Сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, ходимларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса) Санкциялар субъектлари ҳисобланадими? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | | Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг |

Шарҳ:

| | | |
|----|---|--|
| 23 | Сўнги 3 йил давомида сиз ёки сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса) Санкциялар билан боғлиқ бошқа ҳар қандай даъволар, тергов ҳаракатлари ёки мажбурий ижро ҳаракатларининг предмети бўлганми? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | | Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг |

Шарҳ:

| | | |
|----|---|--|
| 24 | Сиз, Сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, ходимларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса) томонидан Санкцияларнинг бирон бир ҳақиқий ёки мумкин бўлган бузилиши ҳақида биласизми? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | | Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг |

Шарҳ:

| | | |
|----|--|--|
| 25 | Сизнинг ташкилотингиз тўғридан-тўғри ёки билвосита Санкцияланган шахслар билан иш юритадими? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | | Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг |

| | | |
|---|--|---|
| <u>Шарх:</u> | | |
| 26 | Сизнинг ташкилотингиз санкцияланган мамлакатларда (Крим, Куба, Эрон, Сурия, Судан ва Шимолий Корея) тўғридан-тўғри ёки билвосита бизнес, инвестициялар, активларга эгами? | <p>Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/></p> <p>Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг</p> |
| <u>Шарх:</u> | | |
| 27 | Сизнинг ташкилотингизда импорт ёки экспорт назорати, халқаро эмбарго ёки иқтисодий санкциялар билан боғлиқ ҳужжатлар амал қиладими? | <p>Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/></p> <p>Агар “ҳа” бўлса, илтимос илова қилинг.</p> |
| 28 | Сиз Компанияга тақдим этадиган бирон-бир товарлар ёки хизматлар Қрим, Куба, Эрон, Сурия ва Шимолий Кореяда ишлаб чиқариладими (келиб чиқиши) ёки ушбу мамлакатлар орқали етказиб бериладими? | <p>Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/></p> <p>Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг</p> |
| <u>Шарх:</u> | | |
| ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАР | | |
| <p>Ушбу бўлимнинг мақсадлари учун:</p> <p>Давлат хизматчиси – бу:</p> <ul style="list-style-type: none"> • давлат идорасининг, шу жумладан қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимият органлари, департамент, муассасалар, идоралар, давлат ёки давлат бошқаруви остидаги корхона ва ташкилотлар, шунингдек, давлат улуши бўлган корхоналар номидан иш юритадиган ҳар қандай мансабдор шахс ёки хизматчи; • халқаро ташкилот (масалан, Жаҳон банки ёки Бирлашган Миллатлар Ташкилоти)нинг номидан ваколат берилган ҳар қандай мансабдор шахси; • сиёсий партия аъзоси ёки сиёсий лавозимга номзод; • ҳар қандай сиёсий таъсир кўрсатадиган шахс; • юқорида қайд этилган шахслардан бирининг яқин қариндошлари. <p>Сиёсий таъсир кўрсатадиган шахс – амалдаги ёки собиқ юқори лавозимли амалдор, шу жумладан, маҳаллий давлат ҳокимияти ёки ўзини ўзи бошқариш органларининг раҳбари; ҳукумат раҳбари, вазир (вазир ўринбосари); парламент депутати ёки шунга ўхшаш қонун чиқарувчи орган аъзоси; сиёсий партиянинг бошқарув органи (кенгаши) аъзоси; Конституциявий суд, Олий суд судьяси ёки бошқа даражадаги суд органининг судьяси (суд органи аъзоси); олий тафтиш (аудиторлик) ташкилоти кенгаши ёки бошқарув аъзоси; Марказий банк кенгаши ёки бошқаруви аъзоси; элчи (консул); инсон ҳуқуқлари бўйича вакил ёки бизнес омбудсман; катта лавозимдаги ҳарбий офицер; давлат улуши бўлган компания кенгаши ёки бошқаруви аъзоси; халқаро ташкилот раҳбари ҳисобланади.</p> | | |
| 29 | Юқоридаги “ ТАШКИЛОТИНГИЗ, МУАССИСЛАР, ИШЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ ” бўлимида белгиланган шахслар (ва уларнинг ҳар қандай яқин қариндошлари) қуйидагилар бўлганми: | |
| Амалдаги ёки собиқ Давлат хизматчиси? | | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |

| | | |
|--|---|--|
| Сизда бирон-бир Давлат хизматчисининг қарор қабул қилишига таъсир қилиш (расмий ёки норасмий, тўғридан-тўғри ёки билвосита) имконияти борми? | | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| Агар юқоридаги саволларнинг бирортасига жавоб “ҳа” бўлса, марҳамат, тафсилотларни, шу жумладан тегишли шахснинг фамилиясини, исмини ва шаърифини ҳамда давлат идораси ёки ташкилотининг тўлиқ номини тақдим этинг: | | |
| <u>Шарҳ:</u> | | |
| 30 | Сиз ёки сизнинг номингиздан ёки бирон-бир контрагент орқали тўғридан-тўғри ёки билвосита Давлат хизматчисига қуйидаги мақсадлар учун тўловлар амалга оширилганми ёки бирон-бир қимматбаҳо буюмлар ўтказилганми (қиймати қандай бўлишидан қатъи назар) ҳамда бунга сиз томондан рухсат берилган, ваъда қилинган ёки тақлиф қилинганми: | |
| Бизнесга эга бўлиш ёки сақлаб қолиш? | | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| Бундай Давлат хизматчиси томонидан ҳукуматнинг одатий ишларини тезлаштириш ёки бажарилишини таъминлаш (масалан, рухсатнома ёки лицензия олиш учун ҳар қандай муурожаатни тезлаштиришга кўмаклашиш)? | | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| Рухсатномалар ёки лицензияларни олиш, ёки экология, солиқ ва/ ёки божхона масалалари билан боғлиқ ҳар қандай қулай ҳаракатларга эришиш? | | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| Агар юқоридаги саволлардан истаган бирига жавоб “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни баён этинг. | | |
| <u>Шарҳ:</u> | | |
| 31 | Потенциал бизнес ҳамкор сифатида сиз (шу жумладан, ҳар қандай директорлар, мансабдор шахслар, ходимлар ёки филиаллар орқали) Компания номидан ҳар қандай Давлат хизматчилари билан ўзаро алоқада бўлишингиз мумкинми? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| | | Агар “ҳа” бўлса, илтимос, алоқа хусусиятларини тавсифлаб беринг. |
| <u>Шарҳ:</u> | | |
| СУБПУДРАТЧИЛАР ЁКИ СУБУБАГЕНТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ | | |
| 32 | Сиз Компания учун бажариладиган ишлар бўйича бирон-бир субпудратчи ёки субагентдан фойдаланмоқчимисиз? | Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> |
| Агар “ҳа” бўлса, марҳамат, субпудратчи (лар) ёки субагент (лар) томонидан шунга ўхшаш тарзда тўлдирилган комплекс текширув анкетасини тақдим этинг. | | |
| ИЛОВА | | |

| | |
|--|---|
| Илтимос, уставингиз, таъсис шартномангиз (агар мавжуд бўлса) тақдим (илова) этинг. | Илова қилинади <input type="checkbox"/> |
| Илтимос, давлат рўйхатидан ўтганлик тўғрисидаги гувоҳномани тақдим (илова) этинг. | Илова қилинади <input type="checkbox"/> |
| Илтимос, бош директорингиз/ президентингиз/ бошқарувчи ҳамкорингиз ёки сизнинг номингиздан Компания билан шартномани имзолайдиган истаган бошқа шахснинг ҳақиқий паспорти ёки шахсини тасдиқловчи бошқа ҳужжат нусхаси тақдим (илова) этинг. | Илова қилинади <input type="checkbox"/> |

Ушбу орқали мен мазкур Анкетада келтирилган ёки унга бириктирилган барча маълумотлар ва / ёки ҳужжатлар тўғри, тўлиқ ва аниқ эканлигини тасдиқлайман.

| | |
|----------|--|
| Ф.И.Ш. | |
| Ташкилот | |
| Лавозим | |
| Сана | |

Имзо

Мухр (агар мавжуд бўлса)

Компания фойдаланиши учун:

Рўйхат ўтган рақами: №DDQ-20__ - ____

Қабул қилиш санаси: ____ / ____ / ____